

## IJTIMOIY-PSIXOLOGIK ADAPTATSIYA TUSHUNCHASI

**Qodirova Laziza Tohirovna**

**Osiyo Xalqaro Universiteti Pedagogika va Psixologiya yo'nalishi 1-kurs  
magistranti**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'smirlarda axloqiy va ma'naviy me'yorlarning ijtimoiy psixologik xususiyatlarini shakllantirish, ularni ma'naviyatli-ma'rifatli insonlar qilib tarbiyalash bo'yicha tadqiqotlar asosida to,,plangan ma'lumotlar asosida ilmiy kuzatishlar amalga oshirildi. Ushbu maqolada asosan xorijiy psixologlarning bu boradagi psixologik qarashlari va yondashuvlari o,,rtasidagi bog'liqlik tahlil qilinadi va o'smirlar ma'naviyatini shakllantirishning ijtimoiy psixologik xususiyatlarini keng targ'ib qilgan tadqiqotlar asosida olingan natijalar bo'yicha xulosalar keltirib o'tiladi. O'smirlar ma'naviyatni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik jihatdan, ma'nviyatni shakllantirishda ayrim muhim ahamiyatga ega bo'lgan element - emotsiyal element, shaxsning o'zini anglash, o'z emotsiyalarini boshqarish va boshqa insonlar bilan munosabatlarda ishtirok etishga oid bo'lgan nazariyalarga asoslangan holda tadqiqotlar amalga oshirildi.

**Kalit so'zlar:** O'smirlilik davri, emotsiyal element, kreativlik, ma'naviy kamolot, ijtimoiy adaptatsiya, ma'naviy qadriyatlar, tanqidiy fikrlash.

**Ijtimoiy adaptasiya** - individning ijtimoiy muhitga doimiy faol moslashish jarayoni va bu jarayonning natijasi. Ijtimoiy adaptatsiya uzlusiz xususiyatga ega ekanligiga qaramasdan, uni, odatda, individning o'z faoliyatini va o'zini o'rab turgan ijtimoiy davrasini tubdan o'zgartirish davrlari bilan bog'laydilar. Moslashish jarayonining ijtimoiy muxitga faol ta'sir etish ko'rinishi va muhitdagi maqsad va qadriyatlarni kelishuvchanlik bilan, passiv qabul qilish ko'rinishi bo'ladi.

Ijtimoiy adaptatsiya shaxs ijtimoiylashuvining asosiyligi ijtimoiy-psixologik omillaridan biridir. Ijtimoiy adaptatsiya ning samaradorligi ko'p jihatdan individ o'zini va o'zining ijtimoiy aloqalarini qanchalik o'xshash anglashiga bog'liq. O'zi to'g'risidagi ijtimoiy tasavvurning noto'g'riliqi yoki yetarlicha emasligi I.m. ning buzilishiga olib keladi, bu holat ning eng ayanchli ko'ri-nishi autizm dir. Ijtimoiy adaptatsiya muammosi

jahon psixologiyasida psixoanaliz, autizm, deprivatsiya kabi ilmiy yo‘nalishlarda tadqiq etib kelinadi. Bunda asosiy e’tibor moslashuvning buzilishiga va uni tuzatish ning psixoterapvtik uslublariga, autotrening, sotsiotrening vositalariga yo‘naltiriladi. Muhitga shaxsning kirishib ketishi uning xulqi, faoliyati, muomalasi orqali sodir bo‘lsa moslashishning mukammalligi vujudga keladi. Shaxsning katta yoki kichik guruxlar muhitiga moslashishi i.ch. samaradorliginioshiradi, ta’lim-tarbiya jarayonini yaxshilashga yordam beradi.

XX asr o’rtalarida ijtimoiylashuv inson rivojlanishini uning butun umri mobaynida o’rganuvchi mustaqil ilmiy sohaga aylandi. Ijtimoiylashuvning turli konsepsiyalarining tahlili uni shartli raivshda ikki asosiy yondoshuvga ajratish imkonini beradi:

-sub’ektiv-ob’ektiv. Unda insonga jamiyat ta’sirining passiv iste’molchisi sifatida qaraladi.

-sub’ektiv-sub’ektiv. Bunda ijtimoiylashuv jarayonida insonning faol o’rni, uning hayotiy holatlarga ta’sir etish qobiliyati nazarda tutiladi.

Jamiyat va ijtimoiy moslashuv jarayonlarini tushunishning hozirgi talablariga ikkinchi yondashuv ko’proq mos tushadi, chunki zamonaviy fanda ijtimoiylashuv insonning madaniyatni o’zlashtirish jarayonidagi rivojlanish va o’zgarishi bilan aniqlanadi. Shaxs shakllanishining turli bosqichlarida kasbiy o’zlikni anglash. Maktabgacha bolalik. Xammaga ma‘lumki bolalar o‘z o‘yinlarida kattalarga taqlid qilishadi va ular xarakatlari va faoliyatlariga o‘xshatishga intilishadilar. Maktabgacha yoshda sujetli - rolli o‘yinlar keng tarqalgan bo‘lib, ular kasbiy yo‘naltirilgan xarakatlarga ega bo‘ladi. Bolalar shifokori, sotuvchi, tarbiyachi, transport vositasining xaydovchisi rollariga kirishib o‘ynaydilar. Kelgusi kasbiyo‘zlikni anglashda birinchi mehnat sinovlari muhim ahamiyatga ega - ungurmakkab bo‘limgan, ya‘ni kiyim, o‘simpliklar parvarishi, xonalarni yig‘ishtirish va boshqa xarakatlarni bajarish kabilar kiradi

Ijtimoiy taraqqiyotni ro‘yobga chiqarish uchun mamlakatda yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash va ularni jahon standartlari darajasiga ko‘tarmoq lozim, fan va texnikaning bugungi kun taraqqiyotiga javob berish uchun keng saviyali, bilimdon, o‘z kasbining fidoiy kishisini kamol toptirish orqali davlatimizda bozor iqtisodiyotiga bardosh

beradigan raqobatbardosh mahsulotlar yaratuvchi kasb egalarini shakllantirish joiz. Toki ular davr talablariga og'ishmay javob beradigan, qiziqishi keng, malakasi mustahkam, xotirasi barqaror, fikr yuritishi puxta izlanuvchan, mehnatsevar, vatanparvar, iymone'tiqodli insonlar bo'lib voyaga yetishishsin. Shuni alohida ta'kidlash joizki, o'rta maktab o'quvchilarining hammasi kasb tanlashga kelganda oqilona va to'g'ri yo'l tutadi, deb bo'lmaydi, albatta. Ulardan ba'zilari tavakkalliga ish tutsalar, ayrimlari ota-onasini tanlaydilar yoki ko'zga tashlanib turgan, yaqqol namunalarga taqlid qiladilar, goho sevimli kishilari izidan borishni mo'ljallaydilar. Ko'pchilik o'quvchilar ta'lim jarayonida fan asoslarini egallab, muayyan tasavvur hosil qiladilar, o'zlari yoqtirgan kasb-hunarlar haqida o'laydilar.

Maktab o'quvchilarining mayllari, havaslari, intilishlari, xohishlari, motivlari, ezgu niyatlari xususan kasbkorga bo'lgan qiziqishlari, motivlari, intilishlari tug'ilishi psixologiya fanining shaxs muammosi bilan uzviy bog'liqidir. Shaxs psixologiyasini o'rganish o'quvchilarni kasb tanlashi demakdir. O'quvchilarning individual tipologik xususiyatlari, yoshi va jinsini hisobga olgan holda ularning har birini oqilona kasbga yo'llash shaxs psixologiyasining muhim vazifalaridan biridir. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat qurish to'g'risidagi hujjatlarda o'quvchilarni mustaqil kasb tanlashga (o'z imkoniyatlarini o'zi baholash orqali) o'rgatish juda muhim va zarur vazifa ekanligi ta'kidlanadi.

Shunga ko'ra psixolog olimlar, metodistlar, tashxis markazi xodimlari keng jamoatchilik bilan birgalikda kasbga doir bilimlarni keng tashviqot qilishlari, kasb-kor tanlashga oid yo'l-yo'riqlar va metodlar ishlab chiqishlari, kasb tanlash maslahatlari rasmiy shoxobchalari kengaytirilishi, professiogramma, professiografiya, psixogrammalar ko'لامи orttirilishi lozim. Keyingi yillarda o'tkazilgan kuzatishlar Respublikamizda yoshlarni kasbga yo'llash sohasida talay kamchiliklar borligini ko'rsatdi. O'ylaymizki, ana shu dastlabki qadam maktablarda kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini olib boruvchi mutaxassis hamda o'quvchilarning kasb-hunarga qiziqishi, moyilligi va layoqatini aniqlash bilan shug'ullanadigan maktab amaliyotchi psixologi shtatlarini tashkil etishdan iborat bo'lishi lozim.

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Alavutdinova, N., & Abdurahmonova, M. Ijodiy fikrlash ko 'nikmasini shakllantirish muammolari. O 'ZBEKIST, 87.
2. Dauletova G.M. Personality development in adolescence. Science and Education in Karakalpakstan 2023. 114.
3. qizi To'yeva, M. S. (2022, November). Yangi O 'Zbekiston Orifa Ayollarri Va G 'Arb Ayollarining Jamiyatdagi Mavqeyi Va Ularning Huquqlari. In International Conferences (Vol. 1, No. 2, pp. 74-81).
4. Taxirovna, A. S. (2023). Exploring Linguistic And Cultural Characteristics In The Translation Of Stories: English And Uzbek Perspectives. Eng Yaxshi Xizmatlari Uchun, 1(6), 59-62.
5. Sharipova, S., & Xalimova, F. (2024). Actual Problems Of Teaching A Language In The Classroom And Their Solutions. Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit, 133-135. <https://doi.org/10.2024/41yemx68>
6. Волков Г.Д., Оконская Н.Б. Адаптация и ее уровни // Философия пограничных проблем науки. Пермь, 1975. Вып. 7. Стр 135.
7. Георгиева И.А. Социально-психологические факторы адаптации личности в коллективе: Автореф. дис. ...канд.психол.наук. Л., 1985. 22 с.
8. Маклаков.А.Г. Личностный адаптационный потенциал: его мобилизация и прогнозирование в экстремальных условиях // Психологический журнал. 2001. Т. 22.
9. Taxirovna, A. S. (2024). Features of Uzbek and English story translations. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 2(2), 202-208.
10. Sharipova, S. (2023). The Role of Coaching Technolog Y In The Development Of Creative Thinking And Abilities Of Adults In Language Learning Process. Solution of social problems in management and economy, 2(13), 5-12.